

# QORAQALPOQ QO'SHIG'I

## Aziz o'quvchilar!

Yurtimiz uzra oltin yoz kezib yuribdi. Biringiz oromgohda, biringiz dalada, boshqa biringiz esa yozgi ta'tilni o'z xohishingiz bilan o'zingiz istagan manzilda shodon o'tkazayotganingiz aniq.

Kattalar esa allaqachon yangi o'quv yili kuni sizlarni shod-xurram kutib olish uchun barcha tayyorgarliklarni boshlab yuborishgan.

Tahririyatimizning tinib-tinchimas xodimlari - opa-akalaringiz siz uchun yangi-yangi maqola, xabar va lavhalar tayyorlab charchamayaptilar. Biz sizlardan bu to'g'risida juda ko'plab xatlar o'lyapmiz, ayrim tengdoshlaringiz qo'ng'iroq qilib, gazetamizning maxsus sonlari haqidagi fikrlarini bildirishmoqda. Masalan, Xorazm, Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Surxondaryo viloyatlaridagi o'quvchilarimiz bizdan minnatdor ekanliklarini bildirishgan. Ayniqsa, ular gazeta orqali juda ko'p do'stlar orttirishganini mamnuniyat bilan yozishgan.

Biz ana shu an'anamizni davom ettirib, bugun qoraqalpog'istonlik tengdoshlaringiz haqida hikoya qilishni lozim topdik. Siz rang-barang sahifalarda mas'ul rahbarlar, ustoz va murabbiylar hamda tengdoshlaringizning dil so'zlari bilan tanishasiz. Shu bilan birga qoraqalpog'istonlik o'quvchilarning ijod namunalari ham e'tiboringizga havola etiladi.

**Xullas, bir qo'shiq yaraldi, qoraqalpog' bolalar qo'shig'i!**

Uni tinglang, fikr-mulohazalaringizni bizga yozib yuboring. Sizning eng yaqin do'stingiz va sirdoshingiz bo'lgan gazetamizning keyingi sonlarini kuzatib borishni ham unutmang. Oldinda siz-u bizni ko'hna Buxoro, bepoyon Qashqadaryo, Sirdaryoning sirli sohillari-yu, Jizzaxning purviqor tog'lari, go'zal vodiyning ko'rki bo'lgan Andijon va Namangan, Toshkent viloyati hamda go'zal poytaxtimiz Toshkent shahri sayohatga chorlaydi.

Quvnoq yozingiz ko'ngilli o'tsin!

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bolalar va o'smirlariga  
bag'ishlangan

**MAXSUS SON**




# HAR BIR BOLA E'TIBORDA

Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibida 14 ta tuman, 2 ta shahar mavjud. Bu yerda paxta, sholi va qoraqol yetishtirish keng yo'lga qo'yilgan. Amudaryoning quyi qismida, Orol dengizining janubiy qirg'og'ida joylashganligi respublika hududiga o'zgacha chiroy baxsh etadi. Tabiatining xilma-xilligi kishini hayratga soladi. Unchalik katta bo'lmagan tog'lik hududlari, Amudaryodan ajralgan irmoqlar, kichik ko'lemlar, to'qayzorlar va keng tekislikdagi botqoqliklar tabiatning noyob mo'jizasi sifatida hududga rang-baranglik bag'ishlaydi.

Respublikada qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatning ko'plab sohalari ham keng rivojlangan. Turli xil tabiiy boyliklari ko'pligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining Davlat Gerbi, madhiyasi hamda bayrog'iga ega.

Qoraqalpog'iston hududida tarixiy qalalarning qoldiqlari juda ko'p uchraydi. Ular uzoq o'tmishda bu yerlarda katta-katta shaharlar bo'lganligidan darak beradi.



**Ahmet NARIMBETOV,**  
Qoraqalpog'iston  
Respublikasi

**Xalq ta'limi vaziri vazifasini  
vaqtinchalik bajaruvchi:**

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2010-yil 10-fevraldagi 28-sonli buyrug'i qabul qilindi. 15 nafar g'oliblar «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining O'zbekiston bosqichida ishtirok etishdi. Respublika O'quvchilar saroyida o'tkazilgan «Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va

Mazkur 2009-2010-o'quv yilimiz «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi» o'quv yili deb nomlanib, ko'plab ibratli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bugungi kunda 217 ta umumta'lim maktablari Ziyonet tarmog'iga ulangan.

giyohvandlikning oldini olish» mavzusidagi seminar-trening, Beruniy tumanidagi 49-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi ishlarining sama-

Respublikamizda jami 1269 ta ta'lim muassasalari bo'lib, shundan 750 ta umumta'lim maktablari, 402 ta maktabgacha va 60 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 21 ta musiqa va san'at maktablari, 30 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari, 1 ta «Mehribonlik uyi», 1 ta maxsus maktab va 3 ta maxsus maktab-internatlar faoliyat ko'rsatmoqda.

radorligini oshirish metodlarini mazmunli va maroqli o'tkazadilar. Farzandlarimizning yozgi ta'illari quvnoq va ko'ngildagidek o'tishi uchun biz pedagoglar, ota-onalar birdek mas'ulmiz.

Yozgi ta'vil davomida ham har bir o'quvchi e'tiborimizda bo'ladi. Respublikamizdagi



## QALAM TUTQAZGAN QO'LLAR

Toshga o'yib yozilgan bitiklar o'chmaganidek, birinchi ustoz saboqlari ham hamisha o'quvchi-yoshlar uchun andoza, o'rnak bo'ladi. Ilk bora qo'limga qalam tutqazgan, bor mehrini berib, o'qishni, yozishni o'rgatgan, ilmli va savodli bo'lishimizga hissa qo'shgan birinchi ustozim Zamira opa Mangitovaning mehnatlarini bir umr unutmayman. Mana, 21 yildirki mehnatsevar, oqko'ngil ustoz boshlang'ich sinflarga saboq berib, yosh avlodni ezgulikka undab kelmoqda. Ustozga havas qilib, men ham shu maktabda yetakchi vazifasida ish boshladim. Kelgusida Zamira opadek fidoyi muallima bo'lish niyatidaman.

Tengi yo'qsiz dunyoda,  
Sizni qo'msar bu dillar.  
Hamon mening yodimda,  
Qalam tutqazgan qo'llar.

Nargiza TAJIMURATOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Xo'jayli tumanidagi  
1-maktab yetakchisi

## BAXT SURATI

Baxt! Kingadir ota-ona hayotligi, yaqinlarining mehri, kim uchundir el-yurt tinchligi, xalqlar hamjihatligi baxtdir. Ba'zan esa shirin jondan kechib ham baxtga erishilar ekan. Zero, bunga tarix guvohdir. O'tgan asrning 40-yillaridagi Ikkinchi jahon urushi tarixning mudhish voqeasi bo'lgan va millionlab insonlarning jisman va qalban jarohatiga sabab bo'lgan. Davr qiyinchiligini nafaqat urush qatnashchilari, balki ayollar va norasidalar ham totishgan...

Mustaqilligimiz sharofati bilan baxt va hurlik tushunchalarini yanada teranroq anglab yetdik. Bugungi kundagi tinchlik, hurlik, farovon hayot baxtning surati bo'lsa, ne ajab?!

Hulkaroy RAHIMBOYEVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Amudaryo tumanidagi 19-maktab

## MASLAHATGO'Y YETAKCHIM!

Bizning Xo'jayli tumanidagi 1-maktabimizda «Kamalak» bolalar tashkilotining 9 nafar sardori bor. Men ular ichida eng yoshi - «Xizmat - beminnat» guruhi sardoriman.



Yetakchimiz Nargiza opa Tajimuratova yosh mutaxassis bo'lishiga qaramay, maktabimizda ko'plab ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Har o'quvchining iste'dodi, qiziqishi, qobiliyatini o'rganib chiqib, «Zulfiyaxonim qizlari», «Yosh rassomlar», «Lider qizlar» klublarini tashkil qildi. Qolaversa, yetakchimiz Nargiza opa ijod bilan ham shug'ullanib turadi. Uning she'rlari, maqolalari «Amu tongi», «Tong yulduzi», «Sinfdo'sh», «Darakchi», «Xo'jayli haqiqati» kabi gazetalarda

chop etilib kelinmoqda. Maktabimizdagi barcha o'quvchi yoshlar yetakchimiz Nargiza opani hurmat qilishadi. Chunki u mehnati, aqlzakovati, tashabbuskorligi bilan bizga o'rnak bo'lib kelmoqda. Maslahatlar berib, kamolot sari yetaklamoqda. Biz o'z navbatida yetakchimizga o'xshashga, uning mehnatini, ishonchini oqlashga harakat qilamiz.

Chin dildan, astoydil mehnat qiluvchi, Iste'dodni payqab, baho beruvchi, To'g'ri yo'l ko'rsatib, shogird biluvchi, Maslahatgo'y, mehribon aziz yetakchi!

Nazokat DAVLETBOYEVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Xo'jayli tumanidagi 1-maktabning  
«Xizmat - beminnat» guruhi sardori



Uning dastlabki Bosh muharriri Maqsud Yoqubov bo'lgan. Gazetaning o'sha yillardagi sahfalarini o'rganib chiqish mobaynida bolalar bir vaqtning o'zida ham ishlab, ham o'qiganlari haqida, yalqov, dangasa o'quvchilar gazetada tanqid qilinib, namunali, mehnatkash o'quvchilarni maqtab yozilgan maqolalar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Muxbirlar maqolalarining ostiga «Ko'rgan», «Anig'ini bilgan», «Kolxozchi» kabi taxalluslar qo'yganlar. Tahririyat bu taxallus egalarini oshkor qilmagan, sir saqlagan.

O'sha yillarda gazetaga Sayfulg'abit Majitov, Jo'l-mirza Aymirzayev, Najim Dashqorayev, Asa Begimov, Da'li Nazbergenov, Qalli Ayimbetov, Tajixmet Seymamutovlar dolzarb muammolarga oid, fikr-mulohazaga chorlaydigan maqolalar yozib turganlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan

Qoraqalpoq istonlik bolalar va o'smirlarining eng yaqin do'sti, sindoshi, ular uchun birlan-bir turmush oqmasi bo'lgan «Jetkinshek» gazetasining ilk soni 1932-yil 20-yanvarda 1950 yuzada, lotin grafikasida. To'rtko'l shahrida bosmadan chiqqan.

so'ng ma'naviyatga alohida e'tibor qarattildi. Yurtboshimiz kelajagimiz egalarga hamisha g'amxo'rlik ko'rsatib kelmoqdalar. 1999-yilning 10-iyulida 25 yoshgacha

lar, shuningdek, «Dilvar» yosh muxbirlar uyushmasi sa'y-harakati bilan tayyorlangan, respublikamizdagi taniqli yozuvchi va shoirlar bilan bo'lgan ijodiy uchra-



tahsil olayotgan bo'lalar-da, jurnalistika va adabiyot yo'nalishida ham ilm olmoqdalar. Ayniqsa, N. Mambetirzayeva, Q. Bekniyazova, T. Kaziykulova, N. Janev akademik litseylarda ta'lim olish bilan birgalikda gazetada faol qatnashib kelmoqdalar.

Gazeta sahifalaridagi

shekemgi tarbiya», «Balalar sporti – davir talabi» kabi ko'plab ruhlarda o'quvchilar uchun qiziqarli masalalar to'g'risida so'z boradi. Har yili gazeta obunasiga oid ko'rik-tanlovlar uyushtirilmoqda, bu o'quvchilar sonining ortib borishiga xizmat qilmoqda.

«Jetkinshek» gazetasi tahririyati jamoasi respublikamizning har

## E L I M I Z K E L A J A G I Y O L I D A

bo'lgan iqtidorli qizlar uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'xis etilib, ular rag'batlantirib borilmoqda. Bu mukofotga sazovor bo'lgan nukuslik Gulmira Mustafoyeva, qo'ng'iroqlik Diana Mamutova, Anira Artigova dolzarb mavzudagi she'r, maqola, hikoyalari bilan gazetamizda qatnashganlar.

So'nggi paytlarda «Jetkinshek» gazetasining fidoyi xodimlari ko'proq maktab o'quvchilari orasida bo'lib, ularning fikr-mulohazalarini o'rganib, gazetani mazmunan boyitib borishmoqda. Bundan tashqari, har yili iqtidorli o'quvchilar orasida o'tkazilib kelinayotgan ko'rik-tanlov-

shuvlar haqidagi ma'lumotlar o'quvchilar auditoriyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu uyushma tuzilgan vaqtda 50 nafar a'zo bor edi, bugungi kunga kelib ularning soni 200 nafarga yetdi.

2004-yildan boshlab gazetaning ko'lami A-3 formatda 8 bet bo'lib kengaytirildi. Natijada, har yili muxbirlarimiz tomonidan tahririyatimizga besh mingdan ortiq xatlar kelmoqda.

Yosh muxbirlarimizdan V. Xo'janova, N. Qayipbergenova, R. Jumaniyozova, S. Jumanova, G. Habibnazarova, E. O'teniyozova, A. Sartayev va boshqalar hozirgi kunda turli oliy o'quv yurtlarida

«Jelqom», «Jas fizikler», «Tulki-shek», «Miyras», «Malika», «Qarlig'ash», «Barin bilgim keledi», «Jas adabiyatshilar», «Diydar» ruhnalari ostida maqolalar berib boriladi. Shuningdek, «Maktab turmisi», «Magg'an so'z berin!», «Qane, kim tez tapqir?», «Kelin, do'slasayiq!», «Kelin, pikirlesayiq!», «Oqidiq, pikir aytamiz», «Ulli tulg'alar tariyxinan», «Jer juzine sayxat», «Bolar sho'lkemi – tarbiya maktabi», «Diqqat: jas o'spirim!», «Maktepke



sohada gullab-yashnashi, yoshlarning mas'uliyatli va bo'lishlariga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Gulnora NURLEPESOVA,  
Nukus shahar hokimi  
o'rinbosari – Xotin-qizlar  
qo'mitasi raisi

**Barkamol avlodni tarbiyalashda Nukus shahridagi 32-umumta'lim maktabi jamoasi ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Mazkur maktab «Yilning eng yaxshi maktabi – 2009» nominatsiyasini qo'lga kiritgan.**

Maktabga O'zbekiston va Qoraqalpoq iston Xalq ta'limi a'lochisi Asiya Jumamuratova 15 yildan buyon rahbarlik qilib kelmoqda. 1987-yilda ochilgan bu dargohda 939 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ularga 103 nafar o'qituvchi to'rt tilda – qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va rus tillarida saboq beradilar. O'quvchilarning mukammal bilim olishlari uchun maktabda barcha sharoitlar yaratilgan.

Laboratoriya xonalari, zamonaviy uslubda kompyuterlashgan jihozlar, fan to'garaklari, o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun qo'shimcha dars xonalari ular xizmatida. Yana rus tili, ingliz tili, rassomchilik to'garaklari, sport seksiyalari ishlab turibdi. «To'maris» raqs to'garigida ko'plab qizaloqlar raqs sirlarini o'rganishadi.

O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochilari

G. Tajenova, G. Ko'shekova, Z. Qutlimuratova, T. Nedarpupova va boshqalarning ko'rgazmali vositalar bilan dars o'tishlari maqtovg'a sazovor. Maktab o'quvchilari

Nukusda o'tkazilgan «Hunarmand yoshlar» tanlovida kashtachilik bo'yicha 8-sinf o'quvchisi S. Belanogova birinchilikni qo'lga kiritdi. Sportning kikkboxing turi bo'yicha O'zbekiston chempioni D. Jamalenov, «Yangi avlod – 2008» bolalar festivali

## YILNING ENG YAXSHI MAKTABI

bilim, hunar, sport bo'yicha ko'plab ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishmoqdalar. Zukko va bilimdon o'quvchilar o'tgan yili «O'yla, izla, top!» yoki «7X7» teleo'yinida qatnashib, final bosqichida ikkinchi o'rinni egallashdi.

laureati, shuningdek, «San'at g'unchalari» XI Respublika yosh san'atkorlar tanlovida I-darajali Diplom bilan taqdirlangan 8-sinf o'quvchisi Lola Qalbayeva kabi o'quvchilar maktab faxriga aylanishgan.

Mazkur bilim dargohida sakkiz nafar nogiron bolalar ham tahsil olishadi. G. Emjarova, Z. Ubaydullayeva, R. Daniyarova kabi muallimlar ularning uylariga borib, dars o'tib keladilar.

Biz maktab hayoti bilan tanishar ekanmiz, ertamiz egalarining bilimli, kuchli, dono, bir so'z bilan aytganda, barkamol avlod bo'lishlarida maktab jamoasining katta hissasi borligiga ishonch hosil qildik. Shunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirayotgan mazkur maktab haqli ravishda «Yilning eng yaxshi maktabi» bo'lgan.

ZEBO qiz tayyorladi



# AYNURANING OLTIN MEDALI

**Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan hunarmandchilik maktab-internatda iqtidorli, hunarmand o'quvchilar yetishib chiqmoqda. Ulardan biri mazkur maktab-internat bitiruvchisi - mo'yqalam sohibi Aynura Sapekyeva.**

- Mening rassomchilikka qiziqishimda dadam Polat Sapekyevning xizmatlari katta bo'ldi, - deydi Aynura. - Esimda, dadamning yonida o'tirib olib, oq qog'ozga bir nimalarni qoralardim. Shunda dadam: - Mening qizim katta bo'lsa, rassom bo'ladi, - deb g'ururlanganlar.

Aynura rassomlik sirlarini ustozlari S.Jaqsibayev, J.Lepesov, N.Shukirullayevdan qiziqish bilan o'rgana bordi. Aynura ustози J.Lepesov bilan birgalikda o'quvchilar orasida birinchilar qatorida O'zbekiston Rassomchilik Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining ko'rgazma saroyida «Ustoz-shogird»



mavzusida ko'rgazma tashkil qilishga muvaffaq bo'ldi. Xalqimizning bebaho merosi, to'y-marosimlari, urf-odatlar, milliy kiyimdagi qoraqalpog qizlarining chizgan asarlari kolleksiyasidan o'rin olgan. Shuningdek, Aynura o'z ijodiy ishlari bilan respublikamizda, dunyo miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda ham qatnashib kelmoqda. U «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Qoraqalpog'iston

Respublikasi Kengashi va Nukus shahri Kengashi tomonidan o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda o'z ko'rgazmalari bilan qatnashib, bir necha bor «Faxriy yorliq» va boshqa mukofotlar bilan taqdirlandi. Jumladan, Hindistonda o'tkazilgan «Shankar - 2007» xalqaro yosh rassomlar tanlovida «Ku-

o'tkazilgan «Biz baxtli yoshlarmiz» ko'rik-tanlovida suratlarini bilan qatnashib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi. 2009-yili «Ovulim - oltin xazinam» ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni olib, tahririyat «Faxriy yorliq»ni hamda qimmatbaho sovg'alarni qo'lga kiritdi.

Aynura rassomchilikdan tashqari milliy kashtachilikka ham qiziqadi. U sportning yengil atletika turi bilan qatnashiladi. Shuningdek, ingliz tili, kompyuter saboqlarini yaxshi o'zlashtirib olish uchun kurslarga qatnab tahsil olmoqda. U o'zbek, qozoq, rus tillarida erkin so'zlasha oladi.

Aynura respublikamizdagi taniqli rassomlar J. Izentayev, J.Qutlimuratov, shuningdek, mashhur musavvir Leonardo Da Vinchining uslublariga havas qiladi. Kelajakda ulardek taniqli rassom bo'lib, xalqimizning milliy qadriyatlarini o'z rasmlari orqali dunyoga tanitishni orzu qiladi.

Haqiqiy iqtidor egasi, mo'yqalam sohibi Aynura Sapekyevaning kelajakda bundan-da katta muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonamiz.



## USTOZ

Boshlang'ich sinf rahbarimiz Dilbar opa Emberganova har haftaning juma kuni o'tkaziladigan sinf soatida «Jetkinshek» gazetasi-ning yangi sonini o'qib berib, bizni gazeta mutolaasiga qiziqitira boshlagandilar. Undagi har bir maqola, hikoya, krossvord, boshqotirmalar, hattoki «Ochil dasturxon» ruknidagi matnlarni ham o'qib berardilar. Bizlar uni qunt bilan tinglab o'tirardik. So'ng, maqolalar bo'yicha o'zimizdan fikr-mulohaza so'rardilar. Shundan bo'lsa kerak, hozir ham bu gazetani sevib o'qiyimiz.



## SABAB

Maqolalarimiz bilan qatnashib turamiz. «Jetkinshek» gazetasi biz yosh muxbirlarning haqiqiy do'stimiz.

Aynura JANABERGENOVA, Nukus tumanidagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## ZERIKISH BEGONA



Aydin Sultanova va Asel Turg'abayeva hozirgi vaqtda 23-umumta'lim maktabida o'qiydilar. Ikkovi boshqa-boshqa sinfda o'qisalar-da, juda yaqin dugonalar. Aydin onasi Tazaxan opa Joldasovadan tikuvchilik sirlarini o'rgana boshladi. Asel esa ustози Aliya Erbolovadan ingliz tilini o'rganayпти.

Kitob, gazeta o'qish ikki dugonaning sevimli mashg'uloti. Shuning uchun ham ularga zerikish begona.



Ra'no ROZUMBETOVA, To'rtko'l shahridagi 16-«Shodiyona» maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi:

- Bog'chamizda 280 nafar bolajon ta'lim-tarbiya oladi. Ular uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kompyuter, lingafon, ma'naviyat va ma'rifat xonasi, sport, musiqa zali va fitobar jajjilarimiz xizmatida. Ingliz va rus tili, gimnastika to'garaklari ham bolajonlar bilan doimo gavjum. Ayni kunlarda issiqxonamizda bodring, pomidor pishgan, turli ko'katlar barq

urgan. Shu bilan birga, 60 ta tovuq'imiz bor.

Mehnatsevar, bolajon tarbiyachilar - Feruza Olloberganova, Zamira Qurbanbayeva, Dilorom Sultanova, Sharofat Ataxanova, Nurida Xudayberganova barchaga o'nak.

Bir so'z bilan aytganda, farzandlarimiz ana shunday yaxshilar qo'lida kamol topmoqda.

OLMOS



Aysanem juda odobli o'quvchi. Barcha fanlarni a'loga o'zlash-tiradi. Yana «Jet-kinshek» gazetasiga maqolalar, hikoya va ertaklar yozib turadi. O'qituvchilari uni barchaga ibrat qilib ko'rsatishadi.

Xullas, barcha tengdoshlariga o'rnak bo'ladigan qiz.

Sinfdoshlari Aysanemga havas qilib, u kabi gazetaga maqola yozishni orzu qilishadi. Bu yil ular butun sinfi bilan uch dona gazetaga obuna bo'lishdi.

Bir kuni sinfga gazetaning yangi soni keldi. O'quvchilari uni talashib-tortishib o'qiy boshlashdi. Aysanemning do'stlari u yozgan ertakni qiziqish bilan o'qib o'tirishganda, Guljamal:

– Bunday ertakni kim ham yoza olmaydi. Hali ko'rasizlar, ertaga men bundan ham qiziqarliroq

## MAQTANCHOQ GULJAMAL



ertak yozib kelaman, – dedi maqtanib. Darslar tugab, uyiga qaytgan Guljamalning sinfdoshlariga bergan va'dasi esiga tushib, shosha-pisha qo'lga qog'oz-qalam oldi va qanday mavzuda ertak yozsam ekan-a, deya bosh qotira boshladi.

O'ylayverdi, o'ylayverdi, xayoliga hech qanday fikr kelmadi. Nima yozishni bilmay, qo'lidagi ruchkasini stol ustiga tashladi-da: «Ertak yozish degani bunchalar qiyin bo'lmasa?» deya o'rnidan turib ketdi.

Ertasi kuni maktabda uni sinfdoshlari o'rtaga olib:

– Qani, Guljamal, ertagingni o'qib ber-chi, fikrimizni aytaylik, – deyishdi.

– Ertak yozish bunchalik qiyinligini bilmagan ekanman. Harchand urinmay, hech narsa yoza olmadim. So'zinning ustidan chiqa olmaganim uchun meni kechiringlar! – dedi. Oxirini o'ylamay maqtanchoqlik qilgani uchun do'stlari oldida uyalib qoldi.

**Fariza AVEZOVA,**

*Nukus shahridagi 37-ixtisoslashtirilgan maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi*

## QORAQALPOQ XANDALARI



Ayiqday lapanglab yuradigan Azamatning otasi:

– Aylanayin ayig'im, beri kel, choy ichamiz, – deb chaqirdi.

Azamat qovog'ini uyib:

– Ota, meni ayig'im, ayig'im deysiz-u, sira asal olib kelib bermaysiz-ku! – dedi.



Po'lat ko'chadan uyga yugurib kelayotib, birdan bo'sag'aga qoqilib, yiqilib tushdi.

O'rnidan turib, u yoq-bu yoqqa alanglab ketayotib, oyog'ining tagida yotgan koptokni bosib oldi va yana gursillab yiqildi.

– Ex, yana yiqilishimni bilganimda, birinchi marta yiqilganimda o'rnimdan turmagan bo'lardim, – dedi u ust-boshlarini qoqarkan g'udranib.



**Yaqipbay AJIMOV**

Tulki yugurib kelayotib, to'satdan quduqqa tushib ketibdi. Chiqayin desa, chiqolmabdi.

Suv izlab yurgan bir Echki Tulkini ko'rib:

– Hoy, Tulki botir, bu quduqda nima qilayapsan? – deb so'radi.

– Voy-bo'y, nimasini so'raysan, muzdek suvda rohatlanib, salqinlab o'tiribman. Qirda juda chanqab ketgandim. Quduqning ichi keng, salqin ekan. Suvi ham tip-tiniq, – debdi Tulki ayyorlik bilan.

Buni eshitgan Echki:

– Men ham muzdek suvdan ichib, bir mazza qilay, – deya sakrab quduqqa tushibdi. Tulki epchillik bilan Echking ustiga, so'ng shoxiga chiqib, bir sakrab tashqariga chiqib olibdi va ortiga qaramay o'z yo'lga ravona bo'libdi.



Uyda gilar bilan A.S.Pushkinning «Oltin baliqcha» ertagi asosidagi multfilmni tomosha qilib o'tirgan edik. Multfilm tamom bo'lgach, besh yoshli singlim Zayfuna:

– Bechora bobo, oltin baliqchadan yomon kampiri uchun shuncha narsa so'ragandan ko'ra, o'ziga bir yaxshi kampir so'rasa bo'lardi-ku, – dedi.

Jajji ukamdan bu gapni kutmagandik, rosa kulishdik.



**Atabek SATBAYEV,**  
Nukus shahridagi  
40-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

**Bolaligim – poshsholigim**

## TAKSIGA MINAYLIK

Murat otasi bilan bozorga borish uchun avtobusga mindi. Otasiga darhol bir ayol joy berdi. Otasi o'rindiqqa o'tirib olib, kel, bolam, deya Muratni yoniga chaqirdi. Shunda boyagi ayol:

– Hey otaxon, men bolangizga emas, o'zingizni siylab joy berdim, – dedi...

Ular bozordan qaytishayotganda, avtobus bekatiga yo'l olgan otasiga qarata Murat:

– Ota, keling, avtobusga chiqmay qo'ya qolaylik! Odamlar joy berib, ketidan minnat qilishadi. Undan ko'ra, anavi taksiga minaylik-da, avtobusning orqasidan boraylik, – dedi.



**D. UBBINIYAZOVA**

Besh yoshli Aysho'lpan hamma narsaga qiziquvchan qiz. Erta bahorda tuxum bosib yotgan kurk tovug'i bir talay jo'ja ochib chiqdi. Bir-biridan chiroyli jo'jalarni ko'rgan Aysho'lpan xursand bo'lib ketdi. Sap-sariq, momiq jo'jalar uning ermagiga aylandi. Ulardan birini ushlamoqchi bo'lgan edi, ona tovuq bolalarining yoniga yaqinlashtirmadi. Xafa bo'lgan Aysho'lpan onasiga:

– Oyi, jo'jalarning bittasini ushlab bering. Ular bilan o'ynagim kelayapti, – dedi erkalanib.

– Jo'jalar bilan o'ynama, ularni o'ldirib qo'yasan, qizim! – deya tushuntirdi onasi.

Aysho'lpan tixirlik qilavergach, unga bitta jo'jani ushlab berdi.

Aysho'lpan xursand bo'lib kechgacha jo'jani qo'lidan qo'ymay yurdi... Kechqurun ularnikiga mehmonlar kelishdi. Oyiysi ular bilan ovora bo'lib, qizining qo'lidagi jo'jani ona tovuqqa qo'shib qo'yishni unutdi.

## AYSHO'LPAANNING JO'JALARI


Aysho'lpan jo'jasini o'zi bilan olib yotdi...

Ertasi kuni u uyqudan turib, jo'jasini izladi. Qarasa, u tagida o'lib yotibdi. Bu holni ko'rgan Aysho'lpan yig'lab yubordi. Uning ovozini eshitib, oyiysi yugurib keldi va:

– Bay-bay, jo'jani uvul qilibsana-ku, – dedi nobud bo'lgan jo'jaga achinib... Aysho'lpan yig'lamsirab, qilgan ishiga pushaymon bo'ldi. U endi jo'jalarni uzoqdan turib tomosha qiladigan bo'ldi...



**Muslima MAMBATNIYAZOVA,**  
Kegeyli tumanidagi 6-umumta'lim  
maktabining o'quvchisi



Aziz o'quvchi! Payqaganmisiz, sabrodagi saksovul va yovshanlar iforidan quvvat olib yashayotgan qoraqalpog'istonlik tengdoshlaringiz qalamidan to'kilgan so'zlarga quyosh singib ketgandek-a?! Misralarida kengliklar nafasi ufurgan, dardmand Orolning nolalari jo bo'lgan she'rlarda yosh ijodkorning quvonchi ham, iztirobi ham uyg'unlashgan. Shu bois, satrlar qatidagi samimiyat sizni o'zi bilan birga fikrlab, birga odimlashga undayveradi.



## QORAQALPOQ QIZLARI

Sizda To'marisning jasurligi bor,  
Sizda Guloyimning nomus, ori bor,  
Sizda keng jahonning savlat, shoni bor,  
Olam ko'rki qoraqalpoq qizlari.

O'n barmoqda hunari jilvalanar,  
Ko'rganlarning dilida havas unar,  
Liboslari ustida yal-yal yonar,  
Ko'hlik, ko'rkli qoraqalpoq qizlari.

Bosgan izi gul-chechakka burkangan,  
So'z, suhbat yuraklarga chirmangan,  
Bu dunyoni go'zallikka o'ragan,  
Qo'llari gul qoraqalpoq qizlari.

Iqbol ABDUSODIQOVA,  
Nukus shahri

## MEN ODAM BO'LSAM DEYMAN

Bobom «Shunqorim», deydi,  
Buvim-chi «Norim», deydi,  
Otam «Tulporim», deydi,  
Onam «Qo'chqorim», deydi.  
Tez-tez o'yga tolaman,  
Qachon ODAM bo'laman?!

## TOYCHOQ

Jajjigina sho'x toychoq,  
Tinim bilmas, urinchoq.  
Yerga qadab tuyog'in,  
Qimirlatar qulog'in.

Og'zin ochib esnaydi,  
Dikonglaydi, kishnaydi.  
Tovush chiqsa alanglar,  
Dala-dashtga yo'l olar.

Yellar bilan o'ynashar,  
Quyosh chiqsa yorishar.  
Yaltirar ipak juni,  
Ustida go'yo to'ni.

Oyzoda  
RAHIMOVA,  
Nukus shahridagi  
40-maktab  
o'quvchisi



## QUSHLAR

Qushlar uchib keldilar  
Uya solib terakka.  
Olib chiqdim uyimdan  
Ularga don yemakka.

Xas-cho'plarni ortqilab  
In qurdi tumshug'ida.  
Kuz kelsa xayr so'zin  
Bog'laydi qo'shig'iga.

\*\*\*

Nodirvoy novvoy  
Issiq non yopdi.  
Nonin novvotday  
Shirin deb sotdi.

Jonsuluv QANOTBOYEVA,  
Kegeyli tumanidagi  
42-maktabning  
6-sinf o'quvchisi

## VATAN

Tuproq'ingga qadam qo'yish baxtimdir,  
Bag'ringda rizqimni terish baxtimdir,  
Boshlagan yo'lingdan yurish baxtimdir,  
Jonimdan ziyoda, qutlug' Vatanim!

Har bir garding ko'ngillarning navosi,  
Yuragimni chayar suving havosi,  
Og'ushingdir ilm-u hikmat ma'vosi,  
Jonimdan ziyoda, qutlug' Vatanim!

Muqaddas UZOQBOYEVA,  
Qo'ng'iro't tumanidagi 3-maktabning  
7-sinf o'quvchisi

## ONA

Onam, mening yuragimda jonimsiz,  
Tomirimda oqib turgan qonimsiz.  
Hislarimga nafis gullarni qadab,  
Kelajagim yaratasiz ardoqlab.

Nodira NORBOYEVA,  
Qo'ng'iro't tumanidagi 3-maktab  
o'quvchisi

## KAPTAR

Jajji ukam O'tkirvoy,  
Kaptarni yaxshi ko'rar.  
Bir kosa qand maydasi  
Bir kunga zo'rg'a yetar.

## HAKKALAR

Yerga qo'ngan hakkalar,  
Kuchugimga chap berar,  
Hakkalar, hakkalar,  
Ushlatmaydi, pand berar.

## QARG'A

Qora qarg'a oppoq gorga,  
Yumalashni hech qo'ymaydi.  
Nodon bu qush shunday qilsa,  
Oqaraman, deb o'ylaydi.

## XO'ROZ

Uyquchi do'stim Sheroz,  
Darslarni ko'p qoldirar.  
Uyg'otmasa xo'rozi,  
Tushda maktabga borar.

Yaqipbay AJIMOV,  
bolalar shoiri

## VATANING YULDUZI BO'L!

Yulduzlar shivirlaydi  
Osmonda yal-yal yonib.  
Nimalar deb imlaydi  
Ko'zimdan quvonch olib.

«Ey, ozod yurtning qizi,  
Oqla eling osh-tuzin,  
Tuproq'ing ko'zga surib,  
Bo'l Vatanning yulduzi!»

Nigora YO'LDOSHEVA,  
Qo'ng'iro't tumanidagi 3-maktabning  
7-sinf o'quvchisi

## ILK SABOQLAR

Baxit va Asqar Jumamuratovlar aka-uka. Ular Nukus shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan maktabda ta‘lim-tarbiya oladilar. Shuningdek, 2-BO‘SM (bolalar va o‘smirlar sport maktabi)da taekvando to‘garagining a‘zolaridir.

Baxit hozir 13 yoshda. Uni yetti yoshida murabbiy Serik Muratov taekvando bilan shug‘ullanishi uchun sport maktabiga boshlab kelgandi. Mana, ilk saboqlar ham ortda qoldi. Baxit mashg‘ulotlarga jiddiy yondashdi, musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko‘rdi va Qoraqalpog‘iston hamda O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha bellashuvlarda muvaffaqiyatli qatnashdi. Uning shodashoda medallarni qo‘lga kiritgan damdagi quvonchiga sherik bo‘lgan ukasi Asqar ham besh yoshidan akasiga ergashib, mashg‘ulotlarga birga boradigan odat chiqardi. Oradan yillar o‘tdi. Asqarning qiziqishi ham shunchaki emas ekan. Ayni damda u Qoraqalpog‘iston birinчилиги bo‘yicha o‘tkazilgan O‘zbekiston chempionatida oltin medalli bo‘ldi.



## ORTDA QOLDI

Aka-uka taekvandochilarga ko‘pchilik havas qiladi. Ularning qora belbog‘ sohibiga aylanganliklari esa murabbiy Serik akani g‘oyat quvontirdi. Endilikda bu bolalar nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik bilan band.

Aminmizki, ular mamlakatimizda taekvando sport turi rivojiga munosib hissalarini qo‘shajaklar.

Gumsha ESEMURATOVA,  
QMU 1-akademik litseyi o‘quvchisi

GULSHADAGA  
ATALGAN GULLAR

Nukus aeroportida Andijon shahridan qaytgan qoraqalpog‘istonlik sportchilarni kutib olish marosimi tantanaga aylanib ketdi. Ularga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yuqori Kengashi qo‘mita boshlig‘i V.Nurabullayev, Kengash raisi o‘rinbosari K.Abdijaliyev peshvoz chiqdilar.



Dasta-dasta gullarga ko‘milgan yosh sportchilarning quvonchi cheksiz edi. Ayniqsa, voleybol bo‘yicha 17 ochko to‘plagan Gulshada Sodiqovaga atalgan gullarning muattar bo‘yi aeroportni tutib ketdi. Uning dugonasi Dilaram Seytova ham munosib natijaga erisha oldi. O‘g‘il bolalar orasida qo‘l to‘pi bo‘yicha murabbiy Azat aka Beknazarov quvonchini shunday o‘rtog‘lashdi:

– «Universiada – 2010» musobaqalarida uchinchi o‘rinni egallash jamoamiz a‘zolari uchun oson kechmadi. Chunki kuchli raqiblar bilan bellashdik. Keyingi bellashuvlarda g‘oliblik shohsupasining yuqori pog‘onasini zabt etish uchun astoydil mehnat qilamiz.

A. TUREKEYEVA,  
«Qoraqalpog‘iston yoshlari» gazetasining muxbiri

## CHOPQIRLAR BAYRAMI



Rasm muallifi: A. Turekeyeva

Ushbu bayramni 546-maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchilari boshlab berishdi. Shundan so‘ng 3 yoshdan 94 yoshgacha bo‘lgan 1500 kishi shahar bo‘ylab yugurishni boshladilar. O‘g‘iloy ham farg‘onalik, samarqandlik, toshkentlik tengdoshlari qatori musobaqada

Shu kunlarda dunyo bo‘ylab ommaviy yugurish kuni o‘tkazilyapti. Ellikqal‘alik O‘g‘iloy Ilyosova ham Toshkentga yugurish bayramida qatnashish uchun keldi.

faol qatnashdi. Natijada, ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi Farg‘ona shahridagi 11-maktabdan kelgan 7- sinf o‘quvchisi Tanya Talanova birinchi o‘rin sohibasi bo‘lishga erishdi. Nukuslik Alfiya Komisboyeva uchinchilikka munosib vakil bo‘la oldi.

Darvoqe, yugurishni yoqtiradigan bolalarga g‘oliblarimizning uchta savoli bor:

1. Yugurish sport turlarini sanab bering.
2. Olimpiya yugurish kuni O‘zbekistonda qachon o‘tkazila boshlagan?
3. O‘zbekistonning eng mashhur yugurish ustalari...

Flora FAXRUTDIN

1. Janubiy Afrika Respublikasida o‘tkazilayotgan «FIFA-2010 chempionati» ochilish marosimida ijro etiladigan «Afrikaning yulduzli onlari» qo‘shig‘i ijrochisi, kolumbiyalik pop yulduzi. 2. 1966-yilgi jahon chempionatiga mezbonlik qilib, g‘olib bo‘lgan mamlakat. 3. FIFA chempionati o‘yinlarining tashkilotchilaridan biri. 4. «FIFA» – 2010 chempionati ni o‘tkazishga «Adidas» kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan to‘pga berilgan nom. 5. Jahonning uch bor chempionligiga sazovor bo‘lgan Yevropa qit‘asi mamlakati. 6. O‘yin davomida yon chiziqdan tashlab beriladigan to‘p. 7. Ispaniya terma jamoasi tarkibidagi mohir to‘purar. 8. Chili terma jamoasida ishtirok etadigan hujumchi. 9. «To‘p afsungarlari» nomini olgan terma jamoa darvozaboni. 10. Jahon chempionatining 1000-golini 1978-yil chempionatida Shotlandiya terma jamoasi darvozasiga kiritgan niderlandiyalik futbolchi. 11. «FIFA – 2010 chempionati»ga Angliya terma jamoasini tayyorlagan italiyalik murabbiy. 12. Yutuq hisobi. 13. Yaponiya terma jamoasi tarkibidagi hujumchi. 14. O‘yindan tashqari holat. 15. Kot-d Ivuar terma jamoasidagi taniqli to‘purar. 16. Fransiya terma jamoasidagi to‘purar himoyachi. 17. Mundiallar tarixidagi birinchi golni Meksika terma jamoasiga kiritgan futbolchi. 18. «FIFA – 2010» Kamerun terma jamoasi tarkibida eng ko‘p o‘yin o‘tkazgan himoyachi. 19. Urug‘vay terma jamoasi yarim himoyachisi. 20. Serbiya terma jamoasi

murabbiyi. 21. Slovakiya terma jamoasi himoyachilaridan biri. 22. Germaniya terma jamoasi tarkibidagi yarim himoyachi. 23. Futbolchi «kengurular» nomini olgan terma jamoa. 24. 2006-yilda o‘tkazilgan jahon chempionatida 2000-golini Angliya terma jamoasiga kiritgan shvetsiyalik futbolchi. 25. Futbol sovrini. 26. Mohir to‘purar Krishtianu Ronaldu o‘ynaydigan terma jamoa murabbiysi.

## MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta‘riflari bayon etilib, raqamlarda ifodalangan kalit so‘zlarni toping.

1. XIX jahon chempionati hakamlaridan biri, FIFA referisi, ikki bor Osiyoning eng yaxshi hakami deb e‘tirof etilgan vatandoshimiz, futbol maktabi instruktorigi – 14, 7, 4, 13, 3, 5, 16.

2. Futbol bo‘yicha birinchi jahon chempionati o‘tkazilgan mamlakat – 11, 7, 11, 8, 16, 13, 18.

3. Chempionat g‘olibi aniqlanadigan hal qiluvchi o‘yin – 10, 2, 9, 13, 6.

4. Futbolchi poyabzali – 12, 11, 3, 1, 13.

5. O‘yin davomida barchaning e‘tiborida bo‘ladigan futbol anjomi – 3, 17, 15.

Endi kalit so‘zlari javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan ommalashgan sport turiga berilgan ta‘rifni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi




# «QORAQALPOQ DIYORI» CHAYNVORDI

**Shakning tashqi yo'ylari bo'yicha:** 1. Poytaxt shahar. 2. Ustyurt platosi va Qoraqum cho'li oralig'idagi soyluk. 3. Ustoz teatr san'atkori, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti. 4. Mashhur xalq qahramonlik dostoni. 5. Orol dengiziga quyuluvchi daryolardan biri. 6. Chorvadorlar manzilgohi. 7. Orol dengizida tarqalgan, ovlanadigan tangasiz yirtqich baliq. 8. Ustyurt platosining janubidagi tabiiy gaz konlari joylashgan botiq maskan. 9. Qazib olinadigan yoqilg'i ma'dan turi. 10. Amudaryoning chap sohilida joylashgan shahar, respublikaning energetika sanoati markazi. 11. Xursandlik holati.

**Shakning ichki yo'ylari bo'yicha:** 12. Transport turi. 13. Qoraqalpog'iston xalq qo'shiqlaridan biri. 14. Respublika hududidagi plato. 15. Amudaryoning o'ng sohilidagi tumanga nomdosh shahar. 16. O'rta maxsus ta'lim o'quv muassasasi. 17. Qoraqalpog'iston shoiri Ajiniyoz Qusiboy o'g'lining insonparvarlik g'oyalari ifodalangan she'rilaridan biri. 18. ... Yusupov - atoqli shoirning ismi. 19. Amudaryo tumani markazi. 20. Ommalashayotgan sport o'yini. 21. Respublikadagi qo'riqxonalaridan biri. 22. Xalqaro tanlovlarda sovrinlar bilan taqdirlangan hujjatli film.

23. Mahalliy tilda shahar atamasi. 24. Yirik daryo. 25. Binokorlik ashyosi. 26. XIX asrda yashab o'tgan qoraqalpog'iston mumtoz she'riyati namoyandasi.



**MUAMMONOMA**  
Avvalo quyida ta'riflanib, rim raqamlarida ifodalangan kalit so'zlarni toping.

1. Buxoro kinofestivalining maxsus mukofotiga sazovor bo'lgan qoraqalpog'iston filmi - II, VII, III.  
2. Tarafma-taraf bo'lib aytiladigan qo'shiq - V, III, VI, III, IV.  
3. So'z ko'rki ta'rifini olgan xalq og'zaki ijodi turi - VIII, III, I, II, V.

Endi kalit so'zlar javoblari asosida shakl aylana laridagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomanini hal eting. Bunda ulardan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Xalq shoiri To'lqin Hayitovning XVIII-XIX asrlardagi xalq hayoti aks ettirilgan roman-essesi nomini yo'nalish bo'yicha o'qish bilan bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

Qadim zamonda Qozoqdaryo yurtida baliqlari juda ko'p bo'lgan bir ko'l bo'lgan ekan. Ko'l bo'yida chol-u kampir yashab, baliqchilik bilan tirikchilik qilisharkan. Bir kuni chol baliq oviga ketib, kampiri uyda yolg'iz qolibdi. Shu payt kulba yoniga bir yo'lbars kelib, g'inshiy boshlabdi. Kampir bu holning sababini bilish uchun sinchiklab qarabdi. U yo'lbarsni bir oyog'ini yalab turganidan panjasiga tikan kirganini tushunibdi. «Voy sherim-ay, norim-ay, senday jonivorga nima bo'ldi?»

deya oyog'idagi tikanni olib tashlabdi va yarasiga yog' surtib davolabdi. Yo'lbars kampirga rahmat aytgandek boshini egib, chiqib ketibdi.

## DOV KAMPIR HAQIDA AFSONA



Lekin yo'lbarsning izlarini ko'rib, bu gapda jon borligiga amin bo'libdi.

Shundan buyon o'sha yerdagi ko'lning nomi mard, qo'rqmas kampirning sharafiga «Dov kampir» deb atala boshlabdi.

**Usnatdin BEKNAZAROV** yozib oldi, **Mo'ynoq tumanidagi 14-umumta'lim maktabining qoraqalpog' tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

Kampir bu holni o'zicha tushunibdi:

«Ay, jonivor-ay, tiling yo'q bo'lsa ham, sening rahmat aytayotganingni tushunib turibman, - deya uning izidan qarab qolibdi. Kechqurun choliga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Chol bobo avvaliga ishonqiramayroq turibdi.



## TAHRIRIYATDAN:

**Aziz bolajonlar! Qoraqalpog'iston bo'ylab qilgan safarimiz chog'ida «Barkamol avlod yili» munosabati bilan olib borilayotgan ibratli ishlardan dilimizda iftixor hissini tuydik. Ilg'or ustozlarning tajribasi-yu tengdoshlarning ijodidan bahramand bo'lib, zavqimiz oshdi. O'quvchilar she'rilaridagi ko'tarinkilikdan ko'nglimiz tog'day yuksalgan bo'lsa, quvnoq do'stlaringiz hangomalarini o'qib, miriqib kuldik. Ha, qoraqalpog'istonlik o'g'il-qizlarning yutuqlari maqtasa arzigulik. O'ylaymizki, sayohat sizga ham manzur bo'ldi. Ta'til kunlarida bizni kuting. Balki navbatdagi safarimiz sizning viloyatingizga bo'lar. Sizlarda ham arzigulik ibratli ishlaringiz ko'pligiga ishonchimiz komil. Shu bois, sizlar bilan xayrlashmaymiz, ko'rishguncha, deb qolamiz.**

**Fursatdan foydalanib, mazkur sonni tayyorlashda bizga yaqindan ko'mak bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga, Matbuot xizmatiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga, Nukus shahar hokimi o'rinbosari - Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Gulnora Nurlepesovaga, «Jetkinshek» gazetasi dizayneri Qabul Begimovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Maxsus sonni nashrga tayyorlaganlar: To'lqin Hayitov, Feruza Jalilova, Feruza Adilova, Ma'mura Madrahimova, Yusuf Abdullayev, Gulyuz Orifjonova, Nargiza Abdullayeva, Barno Rustamova, Fazliddin Shoyodgorov, Olovuddin Oripov.**

**BOSH MUHARRIR:**  
**To'lqin HAYITOV**

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

**Dizaynerlar:**  
**Fazliddin SHOYODGOROV,**  
**Olovuddin ORIPOV**  
Navbatchilar:  
**Gulyuz ORIFJONOVA,**  
**Yusuf ABDULLAYEV**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbar RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manziliimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
**Tel./faks:**  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 69289  
Buyurtma N: 9641